

**TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O'TKAZMALARI VA  
ULARNING HISOBI**

*Safarova Muxabbat Radjabovna*

*Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti*

Tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi va xalqaro savdo hajmining ortishi natijasida transchegaraviy moliyaviy operatsiyalarga ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Xalqaro pul o'tkazmalari, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim iqtisodiy vosita bo'lib, ular orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport va import operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash hamda chet elda ishlayotgan fuqarolarning pul jo'natmalarini amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari jarayonlarini takomillashtirish, ularning hisobi va audit tizimlarini rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi tijorat banklarida turli xil xalqaro pul o'tkazmalaridan foydalaniladi. Har qaysi tijorat bank o'ziga mos keladigan xalqaro pul o'tkazmalarini tanlab olgan. "O'zsanoatqurilishbank" ATBdagi xalqaro pul o'tkazmalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayni vaqtda bu bankda 5 ta turdagi pul o'tkazmalaridan foydalaniladi (1-jadval):

**1-jadval**

**"O'zsanoatqurilishbank" ATBdagi xalqaro pul o'tkazmalari<sup>1</sup>**

| <b>№</b> | <b>Xalqaro pul o'tkazmalari turlari</b> | <b>Komissiya to'lovi</b> | <b>Umumiy miqdor (komissiya + yuboriladigan pul)</b> | <b>Pul o'tkazish mumkin bo'lgan davlatlar</b> |
|----------|---|--------------------------|--|---|
|----------|---|--------------------------|--|---|

<sup>1</sup> "O'zsanoatqurilishbank" ATB rasmiy <https://sqb.uz/> saytining [https://sqb.uz/uz/individuals/money-transfer/havolasidagi ma'lumotlar](https://sqb.uz/uz/individuals/money-transfer/havolasidagi-ma'lumotlar) asosida muallif tomonidan tayyorlandi  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

|   |                                  |       |         |  |
|---|----------------------------------|-------|---------|--|
| 1 | MoneyGram                        | 0%    | 100\$   | Tanlangan davlatga xizmat ko'rsatilmaydi |
| 2 | Western Union                    | 15%   | 115\$   | Uzoq xorij mamlakatlari                  |
| 3 | Zolotaya Korona (Золотая Корона) | 0%    | 100%    | Rossiya                                  |
| 4 | Ria Money Transfer               | 0%    | 100\$   | Tanlangan davlatga xizmat ko'rsatilmaydi |
| 5 | AsiaExpress                      | 1,4\$ | 101,4\$ | Rossiya                                  |

Yuqoridagi jadvaldan biz ma'lum bo'ladiki, "O'zsanoatqurilishbank" ATBdagi xalqaro pul o'tkazmalari o'zining vazifalari va qulayliklariga ko'ra farqlanadi. Bunda, asosan, xalqaro pul o'tkazmalari komissiya to'lovi va pul o'tkazish mumkin bo'lgan davlatlarga nisbatan farq qiladi.

"O'zsanoatqurilishbank" ATBda avval xalqaro pul o'tkazmalari tizimi orqali xorijga pul yuborish faqatgina naqd pul ko'rinishidagi xorijiy valyuta mablag'lari taqdim qilingan taqdirdagina amalga oshiriladi edi. Bu holat mijozlar uchun muayyan qiyinchiliklarni tug'dirgan. Mijozlarning istak va takliflari hamda bugungi kun talablarini inobatga olgan holda O'zsanoatqurilishbank tizimida xalqaro pul o'tkazmalari tizimidan foydalanish qoidalari yanada soddalashtirildi va qo'shimcha qulayliklar yaratildi.

Ayni vaqtda xalqaro pul o'tkazmalari tizimida maksimal darajada qulay sharoitlar yaratildi, jumladan, naqd va naqdsiz pul mablag'larini omonat hisob raqami yoki plastik kartochni tushirish orqali hech qanday to'siqlarsiz olish va jo'natish imkoniyati joriy etildi. Bank "Western Union", "Blizko", "Aziya Ekspres" va "Zolotaya Korona" tizimlarining ishtirokchisi hisoblanadi va shu tufayli mijozlariga o'z yaqinlari va do'stlariga pulni tez va arzon yuborish imkoniyatini taqdim etadi.

Xorijdan turib O'zbekistonga pul o'tkazmasi qilinganda

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBdan 4 xil usulda pulni qabul qilib olish mumkinligini yuqoridagi rasmdan ko‘rishimiz mumkin. Bu ham mijozlar foydasi hisobiga shakllantirilgan bo‘lib, kundan kunga bu xizmat turlari rivojlanib bormoqda.

Hozirgi kunda “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda xalqaro to‘lov tizimidagi kartalar ham rivojlangan va bu kartalar mijozlarga turli xil xizmatlar ko‘rsatish uchun amalda qo‘llanmoqda. Masalan, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan Xalqaro to‘lov tizimidagi boshqa bankning VISA, Mastercard, UnionPay va JCB kartalari egalariga xizmat ko‘rsatilmoqda (2-jadval):

## **2-jadval**

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan Xalqaro to‘lov tizimidagi kartalari egalariga ko‘rsatiladigan xizmatlar<sup>2</sup>**

| <b>№</b> | <b>Amaliyot turlari</b>               |
|----------|---------------------------------------|
| 1        | Kommunal xizmatlar                    |
| 2        | Bankomat orqali naqd pul yechib olish |
| 3        | Chet el valyutasida pul o‘tkazish     |
| 4        | Milliy valyutada pul o‘tkazish        |
| 5        | Internetda xaridlarni amalga oshirish |

Yuqoridagi jadvalda berilgan amaliyot turlaridan tashqari xalqaro to‘lov tizimidagi kartalar orqali yana bir qancha xizmatlar ko‘rsatiladi. Kommunal, pullik va boshqa xizmatlar uchun “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning xizmat ko‘rsatish shahobchalarida, shuningdek, savdo va xizmatlar uchun savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalarida ATB “O‘zsanoatqurilishbank” orqali to‘lovlarni amalga oshiriladi.

Tijorat banklari uchun xalqaro pul o‘tkazmalarining shaffofligi va qonuniyligi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda, balki bankning xalqaro maydondagi obro‘si va raqobatbardoshligini saqlashda ham muhimdir. Xalqaro miqyosda ishonchli va professional xizmat ko‘rsatish bank mijozlari sonining ortishiga va moliyaviy bozorda bankning o‘z o‘rnini mustahkamlashiga xizmat qiladi. Shu bois, xalqaro pul o‘tkazmalari auditini muntazam va sifatli o‘tkazish

<sup>2</sup> “O‘zsanoatqurilishbank” ATB rasmiy <https://sqb.uz/> saytining [https://sqb.uz/uz/individuals/money-transfer/havolasidagi ma'lumotlar](https://sqb.uz/uz/individuals/money-transfer/havolasidagi-ma'lumotlar) asosida muallif tomonidan tayyorlandi  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

banklar uchun zaruriy shartlardan biri hisoblanadi.

Xalqaro pul o'tkazmalari auditini tashkil qilish orqali banklar o'z faoliyatini muntazam tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayonda banklar ichki nazorat tizimlarini kuchaytirib, moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanish, mijozlar ishonchini oshirish va xalqaro moliyaviy me'yorlarga muvofiq ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, audit banklar uchun muhim xavf-xatarlarni aniqlash, ularga qarshi choralar ko'rish va operatsiyalar xavfsizligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, xalqaro pul o'tkazmalari auditining tijorat banklaridagi ahamiyati oshib bormoqda.

Xalqaro pul o'tkazmalari auditining tijorat banklarida ahamiyati katta. U xavfsizlikni ta'minlash, shaffoflikni oshirish, xalqaro standartlarga rioya qilish, firibgarlik va noqonuniy operatsiyalarga qarshi kurashish, moliyaviy intizomni mustahkamlash, mijozlar ishonchini oshirish va regulyatorlar bilan samarali munosabatlarni yo'lga qo'yishda muhim vositadir. Shu sababli, banklar xalqaro operatsiyalarida doimiy va sifatli audit jarayonlarini tashkil qilishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

O'zbekiston tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalarining hisobini audit qilish jarayonlari tijorat banklarining xalqaro moliyaviy operatsiyalarni to'g'ri va qonuniy amalga oshirishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu audit jarayonlari orqali banklar o'z mijozlari va xalqaro to'lov tizimlari bilan o'zaro operatsiyalarning to'g'ri bajarilganligini tekshiradi, bankning moliyaviy holatini aniqlaydi va xalqaro me'yorlarga mos ishlashini ta'minlaydi.

O'zbekiston tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari hisobini audit qilish jarayonlari bank faoliyatining qonuniy va samarali ekanligini ta'minlash uchun muhimdir. Audit xalqaro to'lovlar jarayonidagi moliyaviy xatarlarni aniqlash, bankning moliyaviy hisobotlari to'g'riligini tekshirish, va xalqaro standartlarga muvofiqlikni baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, audit jarayoni mijozlar xavfsizligini ta'minlash va xalqaro operatsiyalarda shaffoflikni oshirishga qaratilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli Qarori
3. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-dekabrdagi "Transchegaraviy pul o'tkazmalarini ta'minlash bo'yicha to'lov tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 771-sonli Qarori
6. Мадина Гайфулина. Специалист департамента. Оценка эффективности операционного механизма денежно-кредитной политики. Тошкент. 2021
7. J.X.Ataniyazov, N.X.Jumayev, E.D.Alimardonov. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari (1-qism). Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. - 168 b.
8. Tojiev R.R. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Darslik.- Toshkent. "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2019 yil, 296 b.
9. Bobaqulov T.I., Abdullayev U.A. "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" Darslik. - Moliya.- Toshkent, 2019yil, 226 b.
10. J.X.Ataniyazov ,F.A. Xamidova, M.B.Pulatova. Xalqaro moliya institutlari. O'quv qo'llanma.2020- yil -156b.
11. Гордиевич Т. И., Рузанов П. В. Денежно-кредитная политика: основные режимы и трансмиссионный механизм // Омский научный вестник. Сер. Общество. История. Современность. 2019. Т. 4, № 2. С. 122–130.
12. Кудрин А., Горюнов Е., Трунин П. Стимулирующая денежно-кредитная политика: мифы и реальность // Вопросы экономики. 2017. №5. С. 5–28.
13. Yadgarova M., Qurbonov R. Bank auditi: Darslik. — T.: «Iqtisod Moliya», 2019 , - 320 b.

14. Karaliev T.M. va boshqalar. Bank ishi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 640 bet.
15. <http://www.cbu.uz>
16. <http://www.bank.uz>
17. <http://www.soliq.uz>
18. <https://www.imv.uz>
19. <http://www.stat.uz>